

Atajanov Nurali

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

BIZNESDA ICHKI MOLİYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Maqolada ichki moliyaviy nazoratning biznes sohasida, xususan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida takomillashtirilishdagi iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Ichki moliyaviy nazoratning korxonaning ichki moliyaviy holatini monitoring qilish, o'rganish va baholash jarayonlarini ta'minlashdagi muhim vazifalari bayon etilgan. Maqolada kompaniyalarda ichki moliyaviy nazoratning takomillashtirilishini ta'minlash uchun kerakli jarayonlar: kadrlarni ta'lim sifatini rivojlantirish, ma'lumotlar tizimini avtomatlashtirish, xaridorlar va xizmat ko'rsatuvchi bo'yicha moliyaviy hisobotlarini optimallashtirish tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada ichki moliyaviy nazoratning biznes daromadligini ta'minlashdagi samarasi va uni takomillashtirilish muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: ichki moliyaviy nazorat, investor, moliyaviy risk, dividend, moliyaviy samaradorlik, ROA, ROE, sof foyda, ustav kapital.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В БИЗНЕСЕ

Аннотация. В статье рассматривается экономическое значение внутреннего финансового контроля в предпринимательской сфере, в частности, в совершенствовании деятельности акционерных обществ. Описаны важные задачи внутреннего финансового контроля в обеспечении процессов мониторинга, изучения и оценки внутреннего финансового положения предприятия. В статье проанализированы необходимые процессы для обеспечения совершенствования внутреннего финансового контроля в

компаниях: развитие качества обучения персонала, автоматизация информационных систем, оптимизация финансовой отчетности для клиентов и поставщиков услуг. Также в статье обоснована эффективность внутреннего финансового контроля в обеспечении рентабельности бизнеса и важность его совершенствования.

Ключевые слова: внутренний финансовый контроль, инвестор, финансовый риск, дивиденд, финансовая эффективность, ROA, ROE, чистая прибыль, уставный капитал.

IMPROVING INTERNAL FINANCIAL CONTROL IN BUSINESS

Abstract: The article examines the economic importance of internal financial control in the business sphere, in particular, in improving the activities of joint-stock companies. The important tasks of internal financial control in ensuring the processes of monitoring, studying and assessing the internal financial position of the enterprise are described. The article analyzes the necessary processes to ensure the improvement of internal financial control in companies: developing the quality of personnel training, automation of information systems, optimization of financial reporting for clients and service providers. The article also substantiates the effectiveness of internal financial control in ensuring business profitability and the importance of its improvement.

Key words: internal financial control, investor, financial risk, dividend, financial efficiency, ROA, ROE, net profit, authorized capital.

KIRISH

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda, aholi daromadlarini oshirishda tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, AQSH, Xitoy va Yaponiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi Apple, Amazon, BYD, Toyota kabi biznes subyektlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning bozor kapitallashuvi ayrim mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotlaridan ziyoddir.

Respublikamizda biznes faoliyatni rivojlantirishga, unga keng miqyosida xorijiy investitsiyalarni olib kirish bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qayd etilganidek, "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish"[1] vazifalar belgilab o'lingan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun biznes muhitini daromadlilikini oshirish, undagi moliyaviy nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki moliyaviy nazorat korxonaning moliyaviy jarayonlarini va faoliyatini monitor qilish, o'rganish hamda baholash jarayonidir. Moliyaviy nazorat korxona rahbariyati va investorlar uchun moliyaviy holatini barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, ichki moliyaviy nazorat, qonun va tartibotlarga rioya qilish, xatolar va kamchiliklarini aniqlash, moliyaviy xavflarni oldini olish, shuningdek, korxonaning moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar o'z ilmiy ishlarida biznesda ichki moliyaviy nazoratni takomillashtirish yo'llari va usullari ko'rsatib o'tishgan. Ichki moliyaviy nazorat moliyaviy nazoratning bir yo'nalishi hisoblanadi. Iqtisodchi olimlardan T.S.Malikov, O.O.Olimjonovlar qayd etishicha, "moliyaviy nazorat

iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaga obyektiv xos bo'lgan nazorat xususiyatining amalda namoyon bo'lishidir. Odatda, moliyaviy nazorat quyidagi ikki yo'nalishda (aspektida) qaraladi: barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan maxsus tashkil etilgan nazorat organlarining qat'iy tartib asosida tashkil etilgan faoliyati; moliyaviy operatsiyalarning samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida makro- va mikrodarajada moliya hamda pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi. Moliyaviy nazoratning har ikki yo'nalishi (aspekti) bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, nazoratning maqsadi, metodi va subyektlariga muvofiq ravishda farqlanadi ham. Agar birinchi holda nazoratning huquqiy va miqdoriy tomonlari ustunlik qilsa, ikkinchi holda moliyaviy nazoratning analitik tomoniga juda katta e'tibor beriladi"[2].

Xorijiy iqtisodchi olim L.A.Canningemning ta'kidlashicha, "ichki moliya nazorat tizimlari korporatsiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga yordam berishning ijobiy maqsadi bilan ichki jarayonlar sifatida boshlanadi"[3]. Darhaqiqat, ichki nazorat tizimlari har qanday tashkilotning moliyaviy va biznes siyosati hamda jarayonlarining ajralmas qismi hisoblanib, faoliyat rentabelligini ta'minlashda asosiy o'rinda turadi.

Ichki moliyaviy nazoratni samarali tashkil etishda ichki audit xizmatining ahamiyati yuqori o'rin egallaydi. Xususan, Tyurina va Bratkoning ta'kidlashicha, "ichki auditning maqsadi muassasa xodimlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar bajarilishining ishonchliligi, buxgalteriya hisobi metodologiyasi va kompaniya hisobotini tuzishning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash, moliyaviy boshqaruvni tashkil etishdan iborat"[4].

Iqtisodchilardan G.Michelon, S.Bozzolan, S.Berettaning fikricha, "ichki moliyaviy nazorat tizimlari - bu tashkilotning operatsion rentabelligi va

samaradorligi, ishonchli moliyaviy hisoboti va qonunlar, qoidalar va hisob siyosatiga muvofiqligi bo'yicha maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan jarayonlardir"[5].

Mahlliy iqtisodchi olim N.Abidova ta'kidlashicha, aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmati faoliyati korporativ boshqaruvda, ya'ni biznes-jarayonlarni samarali boshqarishda, riskga ega bo'lgan sohalarni aniqlashda, muomalalarning hisobda to'g'ri aks ettirilishida va umuman korxonaning samarali faoliyat yuritishida katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, ichki audit xizmati o'zining tashkilot uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsata olishi uchun uning faoliyati samarasi baholanishi lozim[6].

Ichki moliyaviy nazoratni samarali tashkil etishda moliyaviy texnologiyalarning ahamiyat katta hisoblanadi. Xususan, Sh.Begmatovanning fikricha, "iqtisodiyotni moliyaviy tartibga solish sharoitida moliyaviy huquq haqida gap ketganda, shuni ta'kidlash kerakki, yangi texnologiyalar, bir tomondan, huquqiy tartibga solish predmetining kengayishiga olib keladi (masalan, ko'rib chiqilayotgan soha elektron pul muomalasi jarayonida rivojlanayotgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni boshladi), boshqa tomondan, tartibga solish, boshqarish, moliyaviy nazorat va nazoratni qo'llab-quvvatlovchi vositadir. Moliyaviy munosabatlar doirasida qo'llaniladigan texnologiyalar odatda moliyaviy texnologiyalar deb ataladi. Hozirgi vaqtda moliyaviy texnologiyalar nafaqat moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga hissa qo'shadigan tarqoq usul va vositalar sifatida, balki maxsus turdagi mahsulot - moliyaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan tashkil topgan iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida qoraladi"[7].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz joziki, ichki moliyaviy nazorat biznes faoliyatini

samaradorligi oshirishda va faoliyat barqarorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ichki moliyaviy nazoratdan samarali foydalangan holda kompaniyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek ichki moliyaviy nazorat tizimida mavjud muammolar va ularni yechimlari, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaviy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o'zgardi. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o'z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi.

Kompaniyaning ichki moliyaviy nazorati - bu moliyaviy hisobotning to'g'riligini ta'minlash, firibgarlikning oldini olish, qonunlar va ichki moliyaviy siyosatga rioya qilishni ta'minlash, faoliyat barqarorligini va samaradorligini optimallashtirish uchun mo'ljallangan jarayonlarlar, siyosatlar, amaliyotlar va tadbirlar tizimi hisoblanadi. Ichki moliyaviy nazoratning ba'zi asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Mas'uliyatlarni taqsimlash: Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tegishli nazoratni ta'minlash uchun turli xodimlar va bo'limlar o'rtasida moliyaviy mas'uliyatni taqsimlash zarur hisobalandi.

2. Ruxsat berish va tasdiqlash: Tasdiqlangan byudjetlar va vakolatlarga muvofiqligini ta'minlash uchun moliyaviy operatsiyalar va qarorlarni tasdiqlash tartiblarini belgilaydi.

3. Moddiy nazorat: Inventarizatsiyani moliyaviy nazorat qilish, aktivlarga ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish va boshqalar orqali kompaniya aktivlarining xavfsizligini ta'minlash mumkindir.

4. Qonuniy muvofiqlik: Moliyaviy operatsiyalar va hisobotlarda qonunchilik va me'yoriy talablarga rioya etilishini ta'minlash zarurdir.

5. Ichki audit: Ichki nazorat tizimining samaradorligini mustaqil baholash va mumkin bo'lgan yaxshilanishlarni aniqlash, firibgarlikning oldini olish va xavflarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Texnologik nazorat: Axborot tizimlari, buxgalteriya hisobi tizimlari, to'lov operatsiyalari va boshqa texnologik jihatlar ustidan xavfsizlik hamda nazoratni ta'minlash.


7. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish: Moliya sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning zaruriy malaka darajasini ta'minlash, shu orqali ularning samaradorligi va malakasini oshirish.

8. Tavakkalchilikka asoslangan yondashuv: Xatarlarning kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sirini minimallashtirish maqsadida risklarni aniqlash va ularga nisbatan tegishli nazorat mexanizmlarini yaratish.

Ichki moliyaviy nazorat kompaniya uchun katta ahamiyatga ega, chunki u moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash, yo'qotishlar va firibgarlikdan himoya qilish, shuningdek, risklarni boshqarishni takomillashtirish va biznesning uzoq muddatli barqarorligi va farovonligi uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

Sohalar kesimida oladigan bo'lsak, ichki moliyaviy nazorat moliya sohasida faoliyat olib boradigan tuzilmalar, xususan, banklar faoliyatida muhim ahamiyat

kasb etadi. Bankdagi ichki moliyaviy nazorat boshqaruvning muhim jihati hisoblanadi, chunki bank mijozlar mablag'lari bilan shug'ullanadi va yuqori darajadagi tavakkalchilikka duch keladi.



1-rasm. Bankda ichki moliyaviy nazoratning elementlari[8]

Bankda ichki moliyaviy nazoratning bir necha asosiy elementlari:

Reglamentga muvofiqlik: Banklar nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'rnatilgan qat'iy standartlar va qoidalarga rioya qilishlari kerak. Ichki nazorat ushbu talablarga muvofiqligini ta'minlashi kerak.

Vazifalar va mas'uliyatlarni ajratish: Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va asosiy moliyaviy jarayonlar ustidan ishonchli nazoratni ta'minlash uchun turli bo'limlar va xodimlar o'rtasida vazifalarni ajratish.

Kredit nazorati: Kredit berish, monitoring qilish va undirishning qat'iy tartib-qoidalarini, shuningdek, kredit risklarini nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish.

Operativ nazorat: To'lovlar, o'tkazmalar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar va hokazolarni qayta ishlashni o'z ichiga olgan barcha operatsiyalarning xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash.

Moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi: Moliyaviy hisobotning to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlash, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) va boshqa standartlarga rioya qilish hamda buxgalteriya hisobining yaxlitligiga rioya etilishini ta'minlash.


Xavflarni boshqarish: Foiz stavkalari, valyuta kursining o'zgarishi, operatsion risklar va bank faoliyatiga xos bo'lgan boshqa risklar bilan bog'liq risklarni nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ichki nazorat auditi: Zaif tomonlarni aniqlash, jarayonlarni takomillashtirish va firibgarlikning oldini olish uchun ichki nazorat tizimlarining muntazam auditini o'tkazish.

Bank siri va maxfiyligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish: Mijoz ma'lumotlarining himoyasi va maxfiyligini ta'minlash va mijozlarni adekvat tekshirishni o'tkazish (AML/KYC faoliyati).

Texnologik nazorat: Bank axborot tizimlarining xavfsizligi, yaxlitligi va ishonchliligini, shu jumladan kiberhujumlardan va boshqa tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash.

Ushbu ichki moliyaviy nazoratlar bankka risklarni kamaytirishga, moliya va bank faoliyati bilan bog'liq boshqa risklarni ishonchli boshqarishni ta'minlashga, shuningdek, mijozlar va tartibga soluvchilar o'rtasida yuqori darajadagi ishonchni saqlashga yordam beradi.



2-rasm. Milliy banklarda moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili[9]

2-rasm ma'lumotlarida milliy banklarda moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil etilgan bo'lib, xususan, 2015-yildan 2022-yilgacha sof foyda o'zgarishi "Hamkorbank" ATBda 769 foiz, "Trastbank" XABda 1849 foiz, AT "Aloqabank"da 788 foizni tashkil etgan. Shuningdek, ushbu rasmda ROE ko'rsatkichini ko'rib chiqishimiz mumkin. ROE yoki kapital rentabelligi kompaniyaning aksiyadorlik kapitalidan qanchalik samarali foydalanishini o'lchash uchun ishlatiladigan asosiy moliyaviy ko'rsatkichdir. ROE kompaniyaning sof daromadini (soliqlar to'langanidan keyin) uning o'z kapitaliga yoki aksiyadorlik kapitaliga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. ROE investorlar va

tahlilchilarga kompaniya foyda olish uchun o'z kapitalidan qanchalik to'g'ri foydalanishini baholash imkonini beradi. Yuqori ROE odatda kapitaldan samaraliroq foydalanishni anglatadi va yaxshi moliyaviy intizom, yaxshi boshqaruv va kompaniyaning raqobatbardoshligi ko'rsatkichi bo'lishi mumkin.

Xulosa

Ichki moliyaviy nazorat kontsepsiyasi - bu moliyaviy hisobotning to'g'riligini, qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash, firibgarlikning oldini olish, kompaniya faoliyatining samaradorligi va samaradorligini optimallashtirish uchun mo'ljallangan usullar, tartiblar, siyosat va amaliyotlar tizimi. Ichki moliyaviy nazorat ko'p sabablarga ko'ra biznes uchun muhim, jumladan:

Firibgarlik va xatolarning oldini olish: Samarali ichki nazorat tizimi firibgarlik, mablag'larni yo'naltirish va noto'g'ri moliyaviy operatsiyalarni oldini olishga yordam beradi.

Reglamentga muvofiqlik: Korporativ moliyaviy standartlar va qonunchilik kompaniyalardan muvofiqlikni ta'minlash uchun tegishli nazorat va muvozanatlarga ega bo'lishini talab qiladi.

Aktivlarni himoya qilish: Ichki jarayonlar va operatsiyalarni nazorat qilish kompaniya aktivlari, shu jumladan pul, intellektual mulk va boshqa resurslarning saqlanishi va himoya qilinishini ta'minlashga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi: Ichki nazorat moliyaviy hisobotning to'g'riligi va ishonchliligini ta'minlashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshiradi.

Rsiklarni boshqarish: Nazorat tizimi kompaniyaning moliyaviy operatsiyalari va jarayonlari bilan bog'liq risklarni aniqlash, baholash va boshqarishga yordam beradi.

Operatsion samaradorlik: Aniq belgilangan tartib va boshqaruvlar samaradorlikni oshirishga va keraksiz resurslar sarfini oldini olishga yordam beradi.

Strategik maqsadlarga erishish: Ichki nazorat kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishga yordam beradi, chunki u natijalarni kuzatish va yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashni osonlashtiradi.

Manfaatdor tomonlarning ishonchini oshirish: Kuchli ichki nazorat tizimiga ega bo'lish manfaatdor tomonlar, masalan, investorlar, mulkdorlar, mijozlar va tartibga soluvchilar tomonidan ishonchni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov "Moliya". Darslik.; / – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. – 800 b.
3. Cunningham, L. A. (2004). The appeal and limits of internal controls to fight fraud, terrorism and other ills. Journal of Corporation Law, 29(2), 267–337.
4. Tyurina M.V., Bratko I.V. (2023) Davlat organlarida ichki moliyaviy auditni amalga oshirish jarayonida byudjet risklarini baholash. // Innovatsion iqtisodiyot: axborot, tahlil, prognozlar. No 1. 152-157-betlar
5. Michelon, G., Bozzolan, S., & Beretta, S. (2015). Board monitoring and internal control system disclosure in different regulatory environments. Journal of Applied Accounting Research, 16(1), 138–164. doi:10.1108/JAAR-03-2012-0018

6. N.Abidova Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit ish sifatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘nalishlari//Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 5, October 2022. ISSN: 2181-101, 8-b.

7. Begmatova , S. . (2022). MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING HAR XIL TURLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 1(3), 81–84. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/10297>

8. Посная Е. А., Тарасенко С. В. Роль финансового контроля в оценке капитала банка //Статистика в современном мире: методы, модели, инструменты. – 2017. – С. 290-293.

9. <https://new.openinfo.uz/organizations>